

Uzbekistan Airways xodimlari O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarmoqda

2023 20 Noyabr

Har bir davlat o‘z tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi milliy ramzlari bilan faxrlanadi. O‘zbekistonda davlat bayrog‘i o‘zbek xalqining birligi hamda respublika go‘zalligini ifodalashda va milliy o‘zlikni anglashda muhim o‘rin tutadi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan Uzbekistan Airways uchuvchilari va bort kuzatuvchilari dunyoning turli burchaklarida bayroq bilan suratga tushib chellenjda ishtirok etishni davom etmoqda. Shu yo'sinda, aviakompaniya xodimlari davlatning madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etmoqda.





Ushbu chellenj uchuvchilar va bort kuzatuvchilar davlat bayrog'ini qo'llarida ushlab, u bilan havo kemasi bortida yoki butun dunyo bo'ylab turli diqqatga sazovor joylarda suratga tushishgan fotosuratlardan iboratdir.

